TALABALARDA KASBIY REFLEKSIVEMPATIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

(NAVOIYNING “MAHBUB ULQULUB” ASARI ASOSIDA)

Tashmuxamedova J., Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Shoyimova Sh. S., Alfraganus universiteti “Pedagogika” kafedrasi dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dolzarbligi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida nafaqat boshqaruv va nazariy bilimlarga ega, balki o‘quvchilarning ruhiy holatini tushunadigan yetuk kadrlarni tayyorlash muhim va barqaror vazifa hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy refleksiv-empatik kompetentlikni shakllantirishda Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining asarlari orqali empatiya (hamdardlik, o‘zgalar ichki dunyosini his qilish) g‘oyalari aksiologik mezon sifatida talqin qilingan. Shu nuqtai nazardan, Alisher Navoiyning umrboqiy asarlaridan biri bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” inson ruhiyatining turli qatlamlarini va ijtimoiy tabaqalar psixologiyasini anglashda muhim pedagogik manba hisoblanadi.

Maqsad. Talabalarda kasbiy refleksiv-empatik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini yoritish va uni shakllantirishga xizmat qiluvchi o‘quv-metodik usul va shartlarni aniqlash.

Usullar va natijalar. Adabiyotlar bilan ishlash va nazariy tahlil.

Tadqiqotda adabiyotlar bilan ishlash va nazariy tahlil usullari qo‘llanildi. Adabiyot ta'limi jarayonida “Mahbub ul-qulub” asaridagi “hilm” (muloyimlik, sabr-toqat) hamda “o‘zgalar dardi bilan yashash” g‘oyalari faqat yodlash sifatida emas, balki talabalarni muammoli vaziyatlarga (case-study) qo‘yish, rolli o‘yinlar, pedagogik situatsiyalar va reflektiv yozma vazifalar orqali amaliylashtirilishi lozim. Masalan, darslarda asardagi mudarrislar va tabiblarga doir bo‘limlar tahlil qilinib, talabalarga real pedagogik vaziyatlar taqdim etiladi. Talaba o‘zini asar qahramoni yoki vaziyatdagi o‘qituvchi o‘rniga qo‘yib ko‘rish orqali emotsional

rezonans (empatiya) va o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy baho berish (refleksiya) ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ushbu metodika asosida tashkil etilgan ochiq darslar va amaliy mashg‘ulotlar quyidagi natijalarga erishishga xizmat qiladi:

1. Talabalarda o‘quvchining shaxsini uning xulq-atvori va ijtimoiy kelib chiqishini “ichkaridan” anglash (kognitiv empatiya) darajasi oshadi.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilar dars jarayonida o‘z his-tuyg‘ularini jilovlash va muammolarni hal qilishda refleksiv qaror qabul qilish madaniyatiga ega bo‘ladi.

3. Sharqona pedagogik omillarga asoslangan yondashuvlar empatik charchoq va pedagogik motivatsiya pasayishidan himoya kuchini oshiradi.

Mazkur yondashuv samaradorligi darslar davomida olingan kuzatuvlar, talabalar refleksiv yozuvlari va baholash mezonlari orqali tasdiqlanadi.

Xulosa. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari nafaqat adabiy meros, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy pedagogik manba hisoblanadi. Uni zamonaviy xalqaro ta’lim modellari va interaktiv pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilib o‘quv jarayoniga tatbiq etish ta’lim sifatini va ma’naviy tarbiyani uyg‘unlashtirishda yangi bosqichni ochadi.